

## O'ZBEKISTONDA SIYOSIY O'ZGARISHLAR VA TA'LIM ISLOHOTLARI

**Barno Jo'rayeva Nizomiddinovna**

Termiz muhandislik texnologiya instituti o'qituvchisi

*barnojuraeva234@gmail.com*

**Pardayeva Marjona Kamoliddinovna**

*pardayevamarjona53@gmail.com*

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 1-bosqich talabasi

*<https://doi.org/10.5281/zenodo.11205152>*

*Annotation.* Ushbu maqolada mamlakatimizda chet tili bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va uni ommalashtirishga qo'yiladigan talablar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** chet tili, ingliz tili, islohotlar, oly o'quv yurtlari, sertifikatlar, talab, imkoniyatlar.

## **POLITICAL CHANGES AND EDUCATIONAL REFORMS IN UZBEKISTAN**

**Abstract.** This article contains information about the reforms implemented in our country regarding foreign languages and requirements for its popularization.

**Key words:** foreign language, English language, reforms, higher education institutions, certificates, demand, opportunities.

## **ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПЕРЕМЕНЫ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ**

*Аннотация.* В данной статье содержится информация о проводимых в нашей стране реформах в области иностранных языков и требованиях к их популяризации.

**Ключевые слова:** иностранный язык, английский язык, реформы, высшие учебные заведения, сертификаты, спрос, возможности.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, chet tillarni o'rganish va o'qitishga talab, qiziqish ortdi, hamda bu borada yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ta'lrim sifatini oshirish, xorijiy tillarni o'qitishni rivojlantirish, yoshlarni turli tillarni o'rganishi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish davlatimiz siyosatining ta'limgan sohasidagi ustuvor vazifalaridan biriga aylandi deyish mumkin. Mamlakatimizning amaldagi rahbari Sh.Mirziyoyev birinchi Prezidentimiz boshlab bergan chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga tadbiq etishda ahamiyatli ko'rsatmalar berib, uning ijrosi ta'minlanishini nazardan chetda qoldirmay kelmoqda. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi,

chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumyevropa talablariga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi.

Dastur doirasida respublikamiz ta'lif muassalari o'rganuvchilari uchun darsliklar, o'quv adabiyotlari, qo'llinmalar yaratildi. Bundan tashqari ushbu talablarga mos ravishda o'quvmashg'ulot xonalari zamon talablariga mos ravishda axborot-kommunikativ texnikalar va jihozlar bilan jihozlandi. Berilayotgan e'tibor natijasi o'laroq chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab ham kundan-kunga oshib bormoqda. Fan mutaxassislari va o'rganuvchilaridan ham ma'lum vazifalar talab etilmoqda. Oliy ta'lif muassasalari pedagoglarining zimmasiga o'zlari egallagan tilni yanada chuqur o'rganish va o'rgatish vazifalarini xorijdagagi rivojlangan mamlakatlarning pedagogic tajribalaridan foydalanish va shu asosda tillarni o'qitishning zamonaviy, samarali metodikasini yaratish vazifasi qo'yildi Xorijiy tillarni o'qitish va o'quvchi yoshlar bilimini baholash borasida zamonaviy metodikalarga asoslangan ta'lif dasturlarini ishlab chiqish va ta'lif tizimining barcha bosqichlariga joriy etish masalasi ham kun tartibidagi muhim vazifalarga aylanmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2019 yil 13 maydag'i "Oliy ta'lif muassalariga o'qishga qabul qilishda milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlarini tadbiq qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan 2020-2021 o'quv yilidan boshlab test sinovlari fanlar blogiga chet tili ham kiritilgan bo'lib, barcha bakalavriat yo'naliishlari uchun til darajasi bir xil qilib belgilangan. Bunda ulardan masalan, ingliz tili fani bo'yicha IELTS (5.5) CEFR, IBS (72), Cambridge Assessment, English FCE kabi qator milliy va xalqaro serifikatlardan B2 daraja talab qilinmoqda. Oxirgi besh yilda til sertifikatiga ega bo'lgan bitiruvchilar sonio'n barobardan oshdi.

2021-yil 6-may kuni mamlakatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev raisligida chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektr yig'ilishi bo'lib o'tdi. Mamlakatimizda har yili ilm-fanning bir nechta yo'naliishi tanlab olinib, alohida e'tibor bilan rivojlanтирilmоqда.

O'zbekistonda oliy o'quv yurtigacha bo'lgan har qanday ta'lif muassasasining bitiruvchilari kamida ikkita chet tillarini bilishlari shart degan edi Prezident Shavkat Mirziyoyev. Endilikda barcha davlat idoralari ishga qabul qilingan yangi xodimlar kamida bitta chet tilini bilishlari talab etiladi. Bu talab shuningdek yuqoriqoq lavozimga ko'tarilish istagida bo'lgan davlat idoralari xodimlariga ham tegishli.

O'zbekistonning ochiqlik siyosati dunyo bozoroga faol kirib borayotgani barcha sohalarda xalqaro hamkorlik aloqalari kengayayotganligi xorijiy tillarni bilishga bo'lgan

ehtiyojini oshirmoqda. Bugungi kunda yurtimizdagи 25 ta oliv ta'lim muassasalarida o'qish va o'qitish chet tilida olib borilmoqda. Taqqoslaydigan bo'lsak 2016- yilda ular atigi 7 ta edi.

Til o'tganish madaniyatlar almashinushi, jamiyatlar rivojlanishi hamdaboshqa insonlarni tushunish va qaysidir ma'noda tinchlikni saqlash uchun g'amxo'rlik qilish, ular uchun nima dolzarbligini aniqlash uchun nihoyatda ahamiyatlidir.

Bu kabi talabarni bajarib, ko'zlangan natijaga erishishda malakali soha vakillari o'z ustida qattiq ishlab, mamlakatimizda xorijiy tillarning ommalashuviga o'z hissalarini qo'shib kelayapti. Eng quvonarlisi, mehnatga yarasha rag'bat, oylik maoshlariga 50% qo'shimcha haq olayotgan xodimlar ishida jadallik, aytish mumkinki, oilasida farovonlik kuzatilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, zarur bo'lgan barcha imkoniyatlardan unumli foydalanib, o'z sohasida ko'plab marralarga erishish faqat mehnatni talab qiladi. Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida xatolarga yo'l qo'ymaslik va muammolarga duch kelmaslik uchun uni o'zlashtirishga mas'uliyat bilan yondashish, muntazam o'z ustida ishlab boorish lozim. Shundagina yuqori natijalarga erishishi mumkin. Jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishni istagan har qanday inson, avvalo o'z ona tilini, dunyo hamjamiyatida marralarga erishishni istagan inson esa, albatta chet tillarini bilishi loimdir. Mamlakatimizda bir necha tilni o'rganish zaruratga aylanayotgan ekan, bu har bir mutaxassis zimmasiga kelajakda bu vazifani bajarishlarida kata mahorat talab etiladi.

## REFERENCES

1. Jalolov J. "Chet tilini o'qitish metodikasi"- Toshkent 1996
2. S.N. Dusmamatova, A.O'. Saydaxmatova "O'zbekistonda xorijiy tillarning o'rnii" Maqola
3. N.A. Xurramova, N.Zubaydova "Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda ilg'or texnologik va pedagogik innovatsiyalardan foydalanish" Maqola
4. "Yangi O'zbekistonda chet tilini o'rganishning yangi imkoniyatlari" Referat